

IJTIMOY VA TIBBIY YORDAM

Tez tibbiy yordam olish uchun uyali telefondan 103 yoki 112 raqamlariga qo'ng'iroq qiling. Hayotingiz va salomatligingiz uchun xavf tug'ilgan holatda, hatto sizda tibbiy polis va hujjatlar bo'lmagan taqdirda ham bepul tibbiy yordam ko'rsatishlari shart!

Tibbiy yordam olishda muammolar yuzaga kelgan holatda "Горячую линию" Министерства здравоохранения: 8 (800) 200-03-89 va "Горячая линия" Комитета по здравоохранению Ленинградской области: 8 (812) 679-60-04 murojaat etishingiz mumkin.

Rossiyada doimiy yashayotgan chet elliklar - yashash uchun huquqqa egalar, fuqaroligi yo'q shaxslar, qochqinlar ijtimoiy qo'llov olishlari mumkin. Ijtimoiy qollov olish uchun aholini ijtimoiy himoya qilish davlat maqomotlariga murojaat eting - social.lenobl.ru

BOLALAR TA'LIMI

Chet ellik fuqarolar bolalari davlat bolalar bog'chalari va davlat maktablariga bepul qatnash huquqiga egadirlar.

Maktab yoshidagi bolaning ota-onalari qonunga ko'ra uni maktabga berishga majburdirlar!

Bolalar bog'chasiga joylashtirish uchun registrasiyadan o'tilgan manzil bo'yicha (МФЦ) ga murojaat eting.

Maktabga joylashtirish uchun (birinchi sinfga emas) registatsiyadan o'tilgan manzildagi maktabga murojaat eting.

Agar sizga maktabda rad etishsa, rayon maorif bo'limiga murojaat eting, u erda sizning rayoningizdagi maktablardan biridan joy ajratishlari shart.

IJTIMOY VA MADANIY ME'YORLAR

Rossiyaga tezroq moslashib olish uchun, mahalliy aholi bilan ko'proq muloqotda bo'lish, do'stlar orttirish, bayramlarda qatnashish, kino, muzey, teatr, kutubxonalarga borib turish, rus tilini o'rganishni tavsiya etamiz.

Rus tilidagi bilim darajangizni sayt va ilovalar orqali oshiring, masalan: «Россия для всех» (O'zbekcha), TORFL GO, pushkininstitute.ru «Образование на русском» portali.

Leningrad viloyatining rasmiy saytida chet ellik fuqarolar uchun ko'p miqdordagi foydali ma'lumotlar mavjud - migrantlenobl.ru.

Rossiya tarixi va madaniyati gaqida culture.ru va histrf.ru saytlaridan bilish mumkin.

Siz bepul maslahat va yordam uchun davlat va ijtimoiy tashkilotlariga murojaat etishingiz mumkin:

Chet ellik fuqarolar uchun davlat xizmatlari - gosuslugi.ru/foreign-citizen

Комитет по местному самоуправлению, межнациональ- ной и межконфессиональным отношениям Ленинградской области: сайт: msu.lenobl.ru тел.: 8 (812) 539-52-33

Домдружбы Ленинградской области: сайт: forumnarodov47.ru тел.: 8 (812) 670-81-43

Управление по вопросам миграции ГУ МВД России по г. Санкт-Петербургу и Ленинградской области: сайт: 78.mvd.ru/ms , тел. 8 (812) 573-38-25, 8 (812) 573-30-02

Паспортно-визовый сервис МВД России, филиал по Санкт-Петербургу и Ленинградской области: сайт: spb.pvsmvd.ru , tel.: 8 (812) 703-68-78

Leningrad viloyatidagi davlat va munitsipal xizmatlar ko'rsatish (МФЦ) sayt: mfc47.ru , tel.: 8 (800) 500-00-47

Zudlik bilan yordam ko'rsatishning birlashgan raqami - 112 (uy yoki uyali telefondan) – favqulodda holat yuz berganda, hayot va salomatlikka xavf tug'ilganda.

Bepul huquqiy yordam

Хайриya jamg'armasi «ПСП-фонд»: 8 (953) 141-31-09, 8 (812) 337-57-85, psp-f.org, vk.com/pspfond

Foydali ma'lumotlar:

migrantlenobl.ru – mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolari uchun sayt - «Добро пожаловать в Ленинградскую область!» Комитета по местному самоуправлению, межнациональ- ным и межконфессиональным отношениям Ленинградской области

migrussia.ru – «Миграция и мигранты» (qonunchilikka oid maslahatlar, muhojirlar va ular bilan ishlovchi mutaxassislar uchun axborot portali – bir necha tildagi moslashish va huquqiy qo'llovga oid maslahatlar, axborot materiallari, davlat va ijtimoiy tashkilotlarning foydali muloqotlari)

Буклет «Добро пожаловать в Ленинградскую область! Полезные советы для трудовых мигрантов» (на узбекском языке)

Разработка текста: БФ «ПСП-фонд»

Авторы-составители: Якимов А.Н., Гончарова Д.В.

Редактор: Панич Б.Л.

Тираж 2000 экз.

Изготовлено в рамках проекта «Школа мигранта. Добро пожаловать в Ленинградскую область!» Комитета по местному самоуправлению, межнациональ- ным и межконфессиональным отношениям Ленинградской области.



КОМИТЕТ ПО МЕСТНОМУ
САМОУПРАВЛЕНИЮ,
МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫМ
И МЕЖКОНФЕССИОНАЛЬНЫМ
ОТНОШЕНИЯМ
ЛЕНИНГРАДСКОЙ ОБЛАСТИ



migrantlenobl

Leningrad viloyatiga xush kelibsiz!

Mehnat muhojirlari uchun foydali maslahatlar

2023

Agar Siz Leningrad viloyatiga ishlash uchun kelgan bo'lsangiz, o'z huquq va burchlaringizni bilishingiz juda muhimdir. Sizga zarur hujjanlarni qanday rasmiylashtirish, ishga joylashish, zarur ko'mak olish va qalloblar hamda vijdotsiz ish beruvchilarning qurboniga aylanmaslik borasidagi bir necha foydali maslahat yordam beradi.

UMUMIY MASLAHATLAR

Rossiyaga kelgan chiptangiz uo naqliyotga minish taloningizni saqlab qo'ying.

O'zingiz bilan har doim pasport, muhojirlik kartasi, registratsiya, ishlash uchun patentga to'lov haqidagi cheklar, amaldagi tibbiy polisni olib yuring.

Hujjatlar yo'qolib qolishi nazarda tutilganda pasport, muhojirlik kartasi, registratsiya, patent, tibbiy polis va mehnat shartnomangizni kseronusxa qilib oling.

«Государственные услуги РФ» gosuslugi.ru/foreign-citizen portalida qayddan o'ting. Госуслуг yordamida davlat tashkilotlariga murojaat etish va onlaynda hujjatlarni rasmiylashtirish - muhojirlik qaydida turish, tibbiy polis olish, Muhojirlik masalalariga oid boshqarma qabuliga yozilish va ko'plab masalalar.

Fotosuratga tushing va daktiloskopik qayddan o'ting.

Har yili tibbiy ko'rikdan o'tishni unutmang – bu 6 yoshdan katta bo'lgan har bir chet el fuqarosi uchun zarur.

Leningrad viloyatida chet ellik fuqarolarga yordam ko'rsatadigan davlat va ijtimoiy tashkilotlar bilan muloqot yollarini bilib oling.

Rossiya mihojirlik qonunchiligidagi o'zgarishlarni kuzatib boring. Zarur ma'lumotlarni izlaganingizda rasmiy davlat saytlaridan foydalaning.

MUHOJIRLIK QAYDI VA PATENT OLISH

O'zingiz yashayotgan manzil bo'yicha muhojirlik qaydida turish muhimdir, yo'qsa sizni jarimaga tortishlari mumkin.

Leningrad viloyatida qonuniy patentni faqat «Паспортно-визовом сервисе» МВД России psvmvd.ru/branches/47 da rasmiylashtiring.

Siz ishlash uchun patent tayyorligi va haqiqiyiligini мвд.рф/сервисы-гвум saytidan bilishingiz mumkin

Patent uchun to'lov har bir to'langan muddat tugashiga 1 kun qolishiga kechiktirmaslan to'lanadi. Ishlash uchun patent olingan muddatdan boshlab 12 oygacha oldindan to'lash mumkin.

MEHNATGA JOYLASHISH VA ISH

Faqat barcha mehnat sharoiti va ish haqi yozilgan rasmiy yozma shartnomaga ko'ra ishlang, yo'qsa sizni aldashlari mumkin. Albatta ish beruvchi tomonidan imzolangan mehnat shartnomasi nusxasini oling.

Ish izlash uchun rasmiy saytlardan foydalaning, masalan: «Работа России» trudvsem.ru yoki Leningrad viloyatidagi bo'sh ish o'rinlari banki czn47.ru

Vositachilarga murojaat etmang - ular sizgan bepul ishchi kuchi sifatida foydalanishlari mumkin.

Unutmang, faqat patentingizda ko'rsatilgan mintaqada va ixtisosga ko'ra ishlashingiz mumkin. Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati – turli mintaqalar!

Ishlayotgan tashkilotingiz nomi va manzilini, boshlig'ingiz nasabi, ismi, telefonini bilishingiz muhimdir. Agar o'z huquqingizni himoya qilishga to'g'ri kelganda bu ma'lumotlar kerak bo'lib qolishi mumkin.

Siz pulni nomingizga ochilgan bank kartangiz orqali yoki shaxsan buxgalteriyada hisob-kitob varaqasini olayotganda imzo chekib oling. Agar ishda sizdan pul qarz bo'lishsa, tilxat talab qiling.

Imzolananayotgan har bir hujjatni diqqat bilan o'qing, uning nusxasini sizga berishni talab eting. Agar siz imzo chekiladigan hujjat bilan rozi bo'lmasangiz, imzolashni rad etishingiz mumkin. Tushunilmagan hujjatlarga imzo chekmang.

Hujjatlaringizni hech kimga saqlash uchun bermang: hech kim sizning hujjatlaringizni olib qo'yish, harakat erkinligingizni cheklash, telefoningizni va boshqalarni tortib olish huquqiga ega emas. Pasportni olib qo'yish va erkinlikni cheklash – jinoyat: bunday holda tezda politsiyaga murojaat eting!

Sizning ish joyingiz xavfsiz bo'lishi zarur, siz kuniga 8 soat va haftasiga 40 soatdan ortiq ishlashga majbur emassis, to'liq bandlikda bo'lganda sizning ish haqingiz hajmi mehnatga haq to'lash hajmining eng kam miqdori (MPOT) dan past bo'lmasligi kerak.

Leningrad viloyatida MPOT - 01.06.2023 dan 17385 rublni tashkil etadi.

Agar ish haqi berishni 15 kundan ko'proqqa kechiktirishsa, ч.2 ст.142 Трудового кодекса РФ ga muvofiq haq berilmagani munosabati bilan ishni to'xtatish borasida ish beruvchiga yozma ariza bering.

Shuningdek bu holatda ish beruvchiga yozma shikoyat berishni va Государственную инспекцию труда va Прокуратуру ga murojaat etishni maslahat beramiz,

Ukraina va EOII davlatlari (Evroosiyo iqtisodiy ittifoqi: Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston) fuqarolari o'zi ish topganlik sifatida qayddan o'tishlari mumkin. O'zlari ish topganlar past soliq to'lashasdi (jismoniy shaxslar bilan shartnomada 4 %, huquqiy shaxslar bilan shartnomaga ko'ra 6%) va mustaril xizmat ko'rsatishadi. Muztaqil shug'ullanish uchun «Мой налог» <https://npd.nalog.ru/app/> ilovasida qayddan o'tmoq zarur.

POLITSIYA BILAN MUNOSABAT

Agar siz jinoyat guvohi yoki qurboni bo'lsangiz, politsiyaga murojaat eting: shaxsan yoki shahar telefonidan 02 ga, uyali telefondan 102 yo 112 raqamlariga, sayt - 78.мвд.рф

Agar politsiya xodimlari ma'lumotlar qaydi bazasi bo'yicha hujjat tekshirish uchun eng yaqin politsiya nuqtasiga borishni so'rashsa, qarindoshlaringiz yoki do'stlaringizga qo'ngiroq qilib, qaerda turganingiz va kim bilan gaplashayotganingizni xabar qilishingizni maslahat beramiz. Kimdir sizga nima bo'layotganini bilishi muhimdir. Politsiya xodimlari hujjar tekshirilayotganda xizmat vazifasini bajarayotgan bo'lishlari kerak va ularda maxsus ko'krak nisoini bo'lmog'i zarur Politsiyachining ko'krak nishoni (jeton) raqamini eslab yo yozib oling, shuningdek xizmat shahodatnomasini ko'rsatishni so'rang va u bilan tanishing.

Yodda tuting: pora berish jinoyat sanaladi. Politsiyachilarga pul bermang! Agar sizni tutishsa, siz qo'ng'iroq qilish huquqiga egasiz, himoyachi, agar rus tilini yomoh bilsangiz, tarjimon talab qilishingiz mumkin. Albatta tutilganlik yoki ma'muriy huquqbuzarlikka oid protocol nusxasini berishni so'rang.

Agar siz protocol mazmuni bilan rozi bo'lmasangiz, «Protokolga rozi emasman», deb yozing va nega ekanligini ko'rsating. Agar siz protokolda yozilganini tushunmasangiz, «Rus tilidagi matnni tushunmayman», deb yozing.

Agar sizni noqonuniy tutgan bo'lishsa yoki politsiyada noqonuniy ushlab turishsa Общественную наблюдательную комиссию (ОНК) ga murojaat eting. <https://vk.com/public203264628> . Sud qarorigacha sizni 48 soatdan ortiq tutib turish mumkin emas.

Politsiya xodimlarining jarima to'lash yo boshqa to'lov uchun sizning hujjatlaringizni garoy uchun olib qo'yishlariga huquqlari yo'q – bu noqonuniy. Jarima faqat sud yo muhojirlik ishlariga oid bo'lim boshligi qaroriga ko'ra solinishi mumkin. Sudda ishingiz ko'rib chiqilayotganda albatta qatnashish va qo'lingizga qarorni oling. Siz 10 kunlik muddatda uning ustidan shikoyat qilishingiz yo 30 kun davomida jarima to'lashingiz mumkin.

Agar politsiya xodimlari sizning huquqlaringizni buzishsa, ariza qabul qilishni rad etishsa, pora talab qilishsa uo zo'rvonlik qilishsa siz 112 yo 02 raqamlariga yoki «Горячая линия» МВД РФ: 8 (800) 222-74-47, «Телефон доверия» ГУ МВД по г. Санкт-Петербургу и Ленинградской области: 8 (812) 573-21-81 ga qo'ng'iroq qilib, yordam so'rab murojaat etishingiz mumkin.

Agar sizni Chet elliklarni vaqtincha joylashtirish markaziga joylashtirgan bo'lsalar, hujjatlaringizni tezroq tiklashga harakat qiling. Albatta mamlakatingizning konsulligi bilan bog'laning yoki jamoat tashkilotlariga bepul huquqiy yordam ko'rsatishni so'rab murojaat eting. Sizga Ijtimoiy nazorat komissiyasi (INK) yordam berishi mumkin.